

QADIMIY USTRUSHONA TOG‘KONCHILIGINING ARXEEOLOGIK MANBALARDA AKS ETISHI

Aqbutayev Jumart Abdumo‘minovich

JDPU, Ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qitish metodikasi (tarix)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada qadimiy Ustrushonaning tog‘li hududlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida yaratilgan ilmiy manbalar asosida hududning tog‘-konchilik sohasi yoritili xususida muallif fikr va mulohazalari berilgan.

Kalit so‘zlar: Somoniylar, Qoraxoniylar, Toshbuloq, Toshqol, metallurgiya, Miq qal’asi, Mink, S.L.Sverchkov.

Ma’muriy markazlari asosan yirik voha shaharlarida joylashgan Somoniylardan farqli o‘laroq Qoraxoniylar tog‘oldi tegralarda ham yangi ma’muriy-boshqaruv markazlarini tashkil qilgan va bu markazlarda ko‘pincha tanga zarbxonalari bo‘lgan, masalan Farg‘onada O‘sh va Koson, Ustrushonada Zomin va Choch-Iloqda Tunkat kabi. Bunday markazlar Qoraxoniylar iqtisodiyotida hanuz muhim o‘rin egallagan yuksak tog‘ ko‘chmanchi aholisining qo‘llashiga va resurslariga ega bo‘lish istagiga bog‘liq bo‘lgan. Bu resurlarga chorva va metall xom ashyosi kirgan bo‘lishi kerak. Bugungi kunda metall xom ashyosini o‘tmishda qazib olish nuqtalari O‘rta Osiyoning tog‘li tegralarida qayd etilgan, shu jumladan Ustrushona hududida. Bu yerda Kuhi-i-Ohan va Mink kabi temir xom ashyosi olinadigan ko‘plab nuqtalar topilgan [1, 39]. Arxeologik izlanishlar ko‘rsatishicha, tog‘oldi tegralarda o‘rnashgan qishloqlar Somoniylar davrida iqtisodiy jihatdan unchalik o‘rin egallamagan bo‘lsa, Qoraxoniylarning kelishi bilan yashnab ketgan.

Tog‘li Ustrushona tegrasidagi Chumqartov va Molguzar tizmalarida olib borilgan arxeologik izlanishlarda tog‘ konchiligi, to‘g‘rirog‘i, temirchilik bilan bog‘liq o‘rta asr yodgorliklari tadqiq etilgan. Bu yerda Miq tog‘ qal’asi tevaragida shakllangan tog‘-kon tegrasida Qoraxoniylar davrigategishli rivojlangan metallurgik konlar tarmog‘i borligi isbotlangan. Mazkur tarmoq temir konlarining mavjudligiga qarab kengaygani qazishmalar va yozma manbalarning tahlili natijasida aniqlangan [2, 136].

Bu yerda qal’aning janubiy qismida ixtisoslashgan temirchilik ustaxonalari aniqlangan. Qal’aning janubidagi qazishmalar bu yerning hunarmandchilik mahallasi yoki shahriston vazifasini o‘tagan hudud bo‘lganini tasdiqlangan. Toshbuloq georadar xaritasi asosida bu yerda kamida 5 ta ustaxona borligi aniqlanib, har biri ma’lum bir xil tuzilishga ega bo‘lgani, ya’ni uchta xona bilan o‘ralgan markaziy hovlidan iborat bo‘lgan. O‘rta asr ustaxonalar uchun bunday tuzilish shakli boshqa shaharlarda ham qayd etilgan.

Bu yerda ikki ustaxona kompleksi qazilib, har birida ko‘plab toshqol va xumdon devorlari parchalari topilgan. Toshqol tahlillari natijalariga ko‘ra, bu ustaxonalar temirga

ikkilamchi ishlov berish va tayyor mahsulot ishlab chiqarishga mo‘ljallangan. Tadqiqotchilar xulosa qilishlaricha, temir xom ashvosini eritib, boyitish kabi birlamchi ishlov berish shaharchadan tashqarida amalga oshirilgan. Ushbu ustaxonalarning temirga ikkilamchi ishlov berishga mo‘ljallanganligiga bu yerda qayd etilgan mayda temir uchirindilari, tuproqda mis va kumush miqdori yuqori bo‘lgan ustaxona yer yuzasi, eritish xumdonning topilmaganligi dalolat qiladi.

2015 yilda xalqaro guruh tomonidan arkdagi turarjoyda, shahristondagi temirchi ustaxonasida maqsadli arxeologik qazishmalar olib borilgan. Me’moriy jahatdan boshqa o‘rtas asr shaharlariga o‘xshashligidan tashqari qazishmalarda shaharchaning tarixiy topografiyasida ayrim farqli vazifa bajargan qism va qurilmalar ham aniqlangan.

Bundan tashqari ustaxonada temir eritish jarayonida hosil bo‘ladigan toshqol parchalari topilmagan. Ustaxonadagi xumdon yonida sopoldan yasalgan ingichka quvur topilgan bo‘lib, bu yerda metallarni qizdirib, ularga ishlov berish ishlari bajarilgani aniqlangan. Qazishma jarayonida qo‘lga kiritilgan tangalar X asr o‘rtasidan – XI asr boshigacha bo‘lgan davr bilan snalashtirilib, ular orasida hatto Xorazmda zarb qilingan tanga bor. Bu esa Toshbuloq aholisining, shu jumladan, ustaxonalarda ishlovchilarning mintaqa bo‘ylab ayriboshlashda qatnashganini ko‘rsatadi.

Keyingi yillarda bu kabi rudani qazib olish va uni qayta ishslash markazlari soni yanada ko‘pligi ma’lum bo‘lmoqda. O‘zbek-Amerika qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 2012 yilda Morguzar tog‘larining yuqori qismi, Zomin qo‘riqxonasining Tojikiston bilan chegara hududida joylashgan Toshbuloq yodgorligigida dastlabki qazuv tadqiqotlari o‘tkazilgan [3, 151-158]. Toshbuloq -1 va Toshbuloq -2 da bir-biriga o‘xshash kamida ikkita qurilish fazasi, temirga dastlabki ishlov berishga mo‘ljallangan ikkita pech qayd qilingan. Toshbuloq-2 esa arxitektra jihatidan ancha mukammal bo‘lib, bu yerda temirga dastlabki ishlov berish va hunarmandlar yashashi uchun qo‘shimcha qurilishlar ham qilingan. Demak, Turkiston tog‘larining baland tog‘ vodiylaridagi metall konlari ilk davrlardanoq chorvadorlar xo‘jaligida muhim ahamiyat kasb etgan.

Temirchilik ustaxonasi. Toshbuloqning shahriston qismidagi bir ustaxonada olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida shaharchada metal ishlab chiqarilgani va savdo-sotig‘i bilan shug‘ullanilgani to‘g‘risida ma’lumot beradi. Toshbuloning o‘rtas asr metalsozlari temir, jez va kumushdan mahalliy va mintaqaviy ko‘lamda buyum ishlab chiqarishgan. Ustaxonada ko‘plab topilgan toshqollar, metal buyum qoldiqlari va o‘rtas asr tangalari shaharchadagi ishlab chiqarishning yuqori darajada turlichaligini ko‘rsatadi. Bu yerdagi madaniy qatlamlarda qo‘lga kiritilgan tangalar 976-1020 yillarda Xorazm, Buxoro va Ustrushonada zarb qilingani aniqlangan. Bunga ko‘ra, Toshbuloq aholisi butun mintaqa bo‘ylab amalga oshirilgan savdo-sotiq ishlarida qatnashgani to‘g‘risida fikr yuritish mumkin. Bundan tashqari, bu sanalarning boshlanishi markaziy O‘zbekiston hududining Qoraxoniylar tomonidan bosib olinishidan oldingi davrga tegishli sanaladi.

Toshbuloq shaharchasida ko‘chmanchi chorvadorlar madaniyati so‘nggi Somoniylar davridan Qoraxoniylarning yashnagan davrigacha uzlusiz davom etgani bilan ajralib turadi. Yozma va numizmatik manbalardan ma’lumki, Qoraxoniylar Movarounnahrning vohalariga XI asrning boshida kirib kela boshlagan, undan oldin esa, IX asrning o‘rtalaridan X asrning oxirigacha Qoraxoniylar Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tangritog‘ etaklarida o‘z hukmronligini mustahkamlab boravergan. Ustrushonaning tog‘li tegrasida o‘rnashgan Toshbuloq shaharchasi ko‘chmanchilari madaniy jihatdan Ustrushonaning vohalaridagi dehqon aholiga emas, balki Turkiston va G‘arbiy Tangritog‘ tizmalarida istiqomat qilgan ko‘chmanchi jamoalarga ko‘proq bog‘liq bo‘lgani kuzatiladi. Somoniylar davrida shimoli-sharqiy O‘rta Osiyoning tog‘li va dasht tegralarida Qoraxoni urug‘lari o‘zining ilk (proto-Qoraxoni) siyosiy uyushish bosqichini boshdan kechirayotgan edi. Bu davrda ularning hokimiyati shimoli-shirqiy Movarounnahrning tog‘li va dasht tegralarigacha, shu jumladan tog‘li Ustrushonagacha yoyilgani taxmin qilinishi mumkin.

Toshbuloq qazishmalarida topilgan tangalar O‘zR FA MAM ilmiy xodimi A. Ataxodjayev tomonidan aniqlangan bo‘lib, aholisining mintaqaviy sheriklar bilan keng iqtisodiy ayirboshlashda qatnashganini ko‘rsatadi [4, 106].

Toshli tagkursi xonani shimoliy, janubiy va sharqiy tomonidan o‘rab olgan, g‘arbiy tomonida esa tagkursi yo‘q maydon ochilgan. Sharqiy devorning tagkursi eng mustahkam deb topilgan, chunki bu yerda balandligi 1,2 metr va qalinligi 70 – 80 sm bo‘lgan kamida 10 qatorli toshli tagkursi aniqlangan. Xonaning markaziy qismi yarim yerto‘la shaklida qurilib, ost qavati tagkursining ham ostiga qazib qurilgan.

Markaziy xonada bir necha ko‘mir o‘ralari va yuqori darajada olov yongan o‘choqlar topilgan. Bu o‘choqlarning (diametri 15-30 sm) ichki devorlari singan sopol bo‘laklari bian qoplab chiqilgan, chetlarida esa erigan tuproq va temir toshqollari uchratilgan. Bu xususiyatlardan ushbu o‘choqlarni havo purkaydigan quvurlarning ust qismi yoki temir xom ashvosini boyitish uchun maxsus idish – tigellarni qo‘yish uchun olovli maydonchalar bo‘lganligi taxmin qilingan. Markaziy xonaning magnit bilan tekshirilishi natijasida bu yerda temir qirindisi va zarrachalarining o‘ta ko‘p miqdorda uchrashi aniqlangan. Xonaning ost qismidagi stratigrafik qatlamlarda topilgan xom g‘ishtlar temir isitish va eritish xumdoni tashqi qismining qoplamasida ishlatalganini ko‘rsatadi.

Xonaning shimoliy qismida yonib ulgurmagan, o‘rnilan siljimagan va yaxshi saqlangan yog‘och xodalar topilgan. Bu xodalar tartib bilan terilib turganidan markaziy xonadagi temir xumdoni uchun tayyyorlab qo‘yilgan yoqilg‘i (o‘tin) bo‘lgani ko‘rinadi. Janubiy xonada yer yuzasidan 1 metr chuqurlikda oval shaklga ega o‘rada kul va cho‘g‘ chiqindilari aniqlangan bo‘lib, markaziy xonadagi temir xumdoni chiqindisi deb talqin qilindi.

Ochilgan qurilma temirga ikkilamchi ishlov berish va temir (balki po‘lat) qurollar iishlab chiqarish hamda mis va kumushdan buyumlar ishlab chiqarish ustaxonasi bo‘lgani aniqlangan. Metallga ishlov berish texnologiyasi bu ustaxonada unchalik yirik bo‘lmagan metal eritish

ichoqlari (xumdonlar) yordamida amalga oshirilgan. Bu xumdonlar ikki qismdan iborat bo‘lib, ost qavati olovxona vazifasini bajargan, yuqori qavati esa metal eritish yoki isitishisitishga mo‘ljallangan. Yuqori qavatda tigelar uchun maxsus maydonchalar ham aniqlangan. Ustaxonalar odatda 2x2 metrlik xonalarda o‘rnatalib, biri metal eritish va isitish, boshqasi yoqilg‘i saqlash, uchinchisi esa chiqindi to‘plash kabi farqli vazifani bajargan. Kesma maydoni bo‘yicha to‘plangan artefaktlar taxmin qilinayotgan ustaxonaning vazifasi to‘g‘risida muhim ma’lumotlarni qo‘lga kiritishga yordam berdi. Bu yerda ochilgan uchoqlarda ko‘plab toshqol qoldiqlari aniqlangan.

Bundan tashqari kesmada temir buyumlar ham topilgan bo‘lib, bular markaziy xonadan va sharqiy devorning tashqari qismidan qo‘lga kiritilgan siniq tig‘lar, mixlar va kichik temir buyum bo‘laklaridan iborat. Bu yerda topilgan sopol idishlar yig‘indisi asosan qo‘lda yasalgan, sirsiz, bo‘yoqli yirik suyuqlik saqlaydian idishlardan tashkil topadi.

O‘rta asr ko‘chmanchi chorvadorlariga tog‘li urbanizm unchalik tanish bo‘lmagan, balki shuning uchun Qoraxoniylar tog‘li tegra shaharchalarini islomga o‘tishdan keyin tashkil qila boshlaganlar va shu bilan ular yangi shakllangan va keng yoiyilgan islom tarmoqlari orqali temir savdo-sotig‘ini nazorat qilish imkoniga ega bo‘lganlar. Ko‘chmanchi aholining Qoraxoniylar boshchiligi ostida yirik transqit‘a iqtisodiy va tijorat tarmog‘i bilan uyg‘unlashuvi, tabiiyki, ularning mintaqadagi iqtisodiy va madaniy o‘sishiga turki bergen. Toshbuloq Qoraxoniylar imperiyasining iqtisodiy, me’moriy, mafkuraviy va siyosiy rivojlanishi bo‘yicha ilk marta tasavvur qilishga undaydi va Ipak yo‘lida iqtisodiy ishlab chiqarish, din va boshqaruvda ko‘chmanchilar gegemoniyasining o‘rni bo‘yicha tushunchalarimizni kengaytiradi.

S.L.Sverchkov tadqiqotlariga ko‘ra Turkiston tog‘larining shimoli-g‘arbida Morguzar, janubi g‘arbida Chimqartov joylashgan bo‘lib, ularning har ikkalasining dengiz sathidan 3000 balandlikda joylashgan. Shimoliy Ustrushonadagi Miq konchilik markazining Miq I, Miq II va Miq III bo‘limlarida O‘rta Osiyodagi yirik, rudani qazib olishdan, qora metalldan tayyor yasashgacha bo‘lgan, ishlab chiqarishning to‘liq shakli, ixtisoslashgan metallurgiya markazi mavjud bo‘lgan [2, 145-146]. N. Negmatovning yozishicha, Yuqori Zarafshon vohasida qadimgi davrlardan oltin qazib olish yo‘lga qo‘yilgan. Bu faoliyat IV-X asrlarda ham davom etgan. Xitoy mualliflari va arab geograflari ma’lumotlarida bu haqida atroflicha bo‘lsada ma’lumotlar bor. Munchoqtepa yaqinida joylashgan Shirinsoy qabristonini ohib o‘rgangan V.F. Gaydukevich guruhi qimmatbaho va yarim qimmatbaho metallardan, aksariyat hollarda quyma usulida yasalgan bir qator zargarlik buyumlarini topishga muvaffaq bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumnkinki, ko‘chmanchilarning yaylov marshrutlari qulay suv va o‘tga boy yaylovlari bilan birgalikda turli xil madan konlari atroflari bo‘ylab ham o‘tgan. Bunda, konlar atrofida ma’lum bir guruh kishilarning qolishi va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishi ham harakterli bo‘lgan. Keyinchalik ushbu konlar atrofi bo‘ylab doimiy qo‘nalg‘alar, qishloqlar – hunarmandchilik markazlari tashkil topgan.

Adabiyotlar:

1. Мақсудов Ф.А. Ўрта асрларда тоғли Уструшона кўчманчи маданияти. Тарих фанлари доктори дар. уч. дисс. – Тошкент. 2020. – Б. 99.; Stark S. Approaching the Periphery: Highland Ustrushana in the Pre-Mongol Period // Cahiers de studia Iranica. – 2008. – 39, –Р. 215-237
2. Сверчков Л.М. Поселение Мық - источник по истории средневековой Уструшаны: дисс. ...канд.ист.наук.- Самарканд,1991.- С.136.
3. Пардаев М., Фрачетти М., Мақсудов Ф., Пардаев Ш., Уинтер Дж., Хермес Т., Ли Ючи, Жен Чин. Археологические исследования на памятнике Ташбулак в 2012 г. // Археологические исследования в Узбекистане 2012 год. Самарканد, 2013. –Б. 151-158.
4. Мақсудов Ф.А. Ўрта асрларда тоғли Уструшона кўчманчи маданияти. Тарих фанлари доктори дар. уч. дисс. – Тошкент. 2020. – Б. 106.